

AQSH VA BUYUK BRITANIYADA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH QONUNLARINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAVSIFLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715622>

Temirov Humoyunmirzo Najmiddinovich

Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: humoyunmirzo.temirov.82@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mamlakatda jinoiy "xufyona iqtisodiyot"ning mavjud bo'lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat xokimiyati tizimlarining turli bo'g'imlari va turli daraja vakillari ham uning yo'ldan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Korruptsiya vujudga kelib, u eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'riidan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: AQSH, Buyuk Britaniya, jinoyat, qonun, ommaviy, tashkilot, xizmat, mansabdor, shax, xodim, pora, javobgarlik.

AQSH va Buyuk Britaniya jinoyat qonuniga binoan, ommaviy tashkilotlarning xizmatchilari – mansabdor shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora olganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya jinoyat qonunlaridan farqli o'laroq, Italiya, Fransiya va GFRda xizmatchini pora evaziga og'dirishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar ancha barqarordirligig

Buyuk Britaniya statut huquqida poraxo'rlik uchun javobgarlik 1889, 1906, 1916 va 1925 yilgi qonunlar bilan o'rnatilgan, shuningdek sud pretsedentlari bilan tartibga solingan. Bu Angliyaning korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari dinamik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Mufasssal, ba'zan haddan ortiq detallashtirilgan ta'riflar, umumiy sanksiyalar bilan bir xil maxsus normalar tuzish yoki tasniflangan (imtiyozli) tarkiblarni (masalan, choychaqa berish va olish uchun javobgarlik moddasini) zaruratsiz kiritish AQSH korrupsiyaga qarshi qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Ayrim shtatlarda jinoyat qonunchiligini kodifikatsiyalashda tavsiyalari hisobga olinadigan AQShning Namunaviy Jinoyat kodeksida ko'rsatilganidek, "ommaviy xizmatchi" atamasi "davlatning har qanday mansabdor shaxsini yoki xizmatchisini, shu jumladan, qonun chiqaruvchi va sudyani hamda davlat vazifasini amalga oshirishda yoki boshqa tarzda ishtirok etuvchi har qanday shaxsni anglatadi"⁴³⁰.

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko'ra, mansabdorlik jinoyatlari nafaqat subyekt – mansabdor shaxsning belgisi bo'yicha, balki himoya qilinadigan obyekt – davlat apparati normal amal qilishi bo'yicha ham birlashtirilgan.

⁴³⁰ Примерный уголовный кодекс США. / Под ред Б.С. Никифорова. – М., 1969. – С. 167.

“Basharti shaxs: a) amaldor yoki sudya hisoblanadigan; b) boshqa ommaviy-huquqiy xizmat munosabatlarida bo‘lsa; yoki v) ommaviy boshqaruv vazifalarini qaysidir hokimiyat organida yoxud boshqa muassasada yo uning topshirig‘iga ko‘ra amalga oshirishga da‘vat etilgan bo‘lsa, u mansabdor shaxs hisoblanadi”. Bundan tashqari, «bevosita ommaviy xizmat qilishga da‘vat etilgan», ya’ni «mansabdor shaxsning o‘zi bo‘lmasa-da, hokimiyatning qaysidir organida ommaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan yoki bunday vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa yoxud birlashmada band bo‘lgan xodim mansabdorlik jinoyatlarining subyekti hisoblanadi»⁴³¹.

Fransiyada ommaviy mansabdor shaxslarning faoliyati turli normativ hujjatlar: ham qonunlar, ham qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi. 1992 yilda qabul qilingan va 1994 yilning sentabrida kuchga kirgan Fransiyaning Jinoyat kodeksi ommaviy mansabdor shaxsni quyidagicha ta’riflaydi:

1) davlat hokimiyatiga ega bo‘lgan shaxslar (Fransiya Respublikasi oliy mansabdor shaxslari);

2) davlat xizmatida bo‘lgan shaxslar (to‘rtta toifadagi amaldorlar);

3) saylanganlik mandatiga ega bo‘lgan shaxslar. Korrupsiyaga qarshi kurashda Finlyandiya tajribasi diqqatga sazovor. Xalqaro Transparensi Interneshnl tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan davlatlardan biri Finlyandiya hisoblanadi. Mazkur davlat roppa-rosa o‘n yil (1995-2004 yillar) korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan davlatlar ichida 1-o‘rinni egallab kelgan.

Keyingi yillarda ham kuchli beshtalikka kirgan. Transparensi Interneshnl tashkilotining 2010 yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, Finlyandiya dunyoda 4-o‘rinda, undan oldin faqat Daniya, Yangi Zelandiya va Singapur davlatlari turibdi). Hozirgi kunda Finlyandiyada yiliga 3-4 ta poraxo‘rlik bilan bog‘liq jinoyat ishlari ko‘rilar ekan. 1980-1989 yillarda, 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora berganlik uchun jazolangan. Shunisi e’tiborliki, Finlyandiya Jinoyat kodeksida “korrupsiya” degan tushuncha mavjud emas. Unda mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, bunday jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima yoki 4 yilgacha bo‘lgan muddatga turmaga qamash jazosi tatbiq etiladi. Ajablanarlisi, Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi kurash haqida maxsus qonun mavjud emas, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ ham tuzilmagan.

Korrupsiyaga umumiy jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlyandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonun, ma’muriy boshqaruvga oid yo‘riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimi Axloq qoidalaridir. Finlyandiyada korrupsiyaning

⁴³¹ Ответственность за должностные преступления в зарубежных странах. / Отв. ред. Решетников Ф.М. – М., 1994. – С. 41-42; Уголовное право буржуазных стран: Общая часть. // Сборник нормативных актов. / Под ред. Игнатова А.Н. и Козочкина И.Д. – М., 1990. – С. 295.

oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar. Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan bo'lgan ishlarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Unga - Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va ma'muriy sud sudyalari a'zo bo'lishi mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin Davlat sudi bor – yo'g'i bir marta chaqirilgan xolos. Davlat xizmatchilari soni unchalik ko'p emas. Ayniqsa, 90-yillarda keyin davlat xizmatchilari soni deyarli teng yarimiga, ya'ni 230.000 dan 127.000 ga qisqartirilgan. Finlyandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri - ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidir⁴³². Alohida ta'kidlash lozimki, Finlyandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergan, balki har bir e'lon qilingan korrupsiya holati bo'yicha aniq choralarni ko'rib boradi. Finlyandiya korrupsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 2008 yil 7 iyuldagi Qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) qo'shildi⁴³³. Albatta, xalqaro hujjatga qo'shilish, ratifikatsiya qilish unda ishtirokchi davlatlarga muayyan majburiyatlar yuklaydi, muayyan talablar bajarilishini talab qiladi. Konvensiyaning 15-moddasi "Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish" deb nomlangan norma mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir ishtirokchi davlat o'z jinoyat qonunchiligida ommaviy mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida, biron noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish uchun javobgarlik belgilashi lozimligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida esa, faqat taqdim qilish to'g'ridan-to'g'ri jinoyat sifatida baholangan. Shunday bo'lishiga qaramasdan va'da qilish va taklif etish mamlakatimiz jinoyat qonuniga binoan pora berishga suiqasd qilish deb topiladi va qilmish O'zR JK 25-moddasi 2-qismi orqali JK 211-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ammo, biz mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilgan ko'plab davlatlarning jinoyat qonunlarini o'rganganimizda, ularda va'da qilish va taklif qilish uchun ham jinoiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri qayd etilganligi, mazkur holat tugallangan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi

⁴³² Зуфаров Р.А., Ахраров Б.Ж., Мирзаев У.М. Коррупция. Қонун. Жавобгарлик. Монография // Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбаев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. – Б. 50-51.

⁴³³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил, 28-сон, 260-модда.

lozimligi belgilanganligining guvohi bo'ldik. Jumladan, pora berish-olishni va'da qilish Koreya Respublikasi JK 130-133-moddalari⁴³⁴, Litva Respublikasi JK 225-moddasi⁴³⁵, Shveysariya JK 322-moddasi⁴³⁶, AQShning Texas shtati JK 36.02-moddasi⁴³⁷, GFR JK 333-334 paragraflarida⁴³⁸, porani taklif qilish esa, Shveysariya JK 322-moddasi⁴³⁹, GFR JK 333-334 paragraflarida⁴⁴⁰ tugallangan jinoyat sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. Xulosa o'rnida alohida qayd etish o'rinliki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, qolaversa, bu sohada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi JK 211-moddasi 1-qismi dispozitsiyasidagi "Pora berish" deb boshlanuvchi so'zlarni "Pora berishni va'da qilish, taklif qilish va taqdim etish" so'zlari bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Bizningcha, amaldagi jinoyat qonuniga bunday mazmundagi qo'shimchani kiritilishi yurtimizda olib borilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi islohotlarni yanada takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa, korrupsiyani vujudga keltiruvchi muammolar jumlasiga isloxotlar bosqichida turgan aksariyat davlatlarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni kiritish zarur, bular: iqtisodiy tanazzulni bartarf etish qiyinchiliklari, siyosiy beaqarorlik, qonunchilikni nomukammalligi, hokimiyat idoralari institutlarining samarasizligi, fuqarolik jamiyati o'ta zaifligi va rivojlanmaganligi, barqaror demokrtaik an'analarning mavjud emasligidir. Davlat amaldori va uning mijoziga munosabatlardagi korrupsion faoliyatning muntazam amaliyoti ushbu ijtimoiy hodisaga jamiyatdagi ma'naviy beparvolik hududi chegaralarini kengaytirmoqda. Ijtimoiy fikr va ijtimoiy ongda bunga o'xshash o'zgarishlar voistasi sifatida qonuniylashish va ijtimoiylashish yuzaga chiqadi. Jamiyatdagi bunga o'xshash o'zgarishlar korrupsiyaning eng xatarli salbiy oqibatlaridan biridir. Yuqori lavozimdagi amaldorlarning ulkan mulkiga ega bo'lgan soxta kompaniyalar va yuridik shaxslarning yaratish amaliyoti kundan kunga jadal doriy etilmoqda, shu asnoda huquqni muhofaza qilish idoralari odatda bunday holatlarni yashirmoqda.

⁴³⁴ Уголовный кодекс Республики Корея. – СПб.: Юридический центр пресс, 2004. – С. 104-106.

⁴³⁵ Уголовный кодекс Литовской Республики. – СПб.: Юридический центр пресс, 2002. – С. 310.

⁴³⁶ Уголовный кодекс Швейцарии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2002. – С. 281.

⁴³⁷ Уголовный кодекс штата Техас. – СПб.: Юридический центр пресс, 2006. – С. 376.

⁴³⁸ Уголовный кодекс Федеративной Респубики Германии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2003. – С. 506507.

⁴³⁹ Уголовный кодекс Швейцарии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2002. – С. 281.

⁴⁴⁰ Уголовный кодекс Федеративной Респубики Германии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2003. – С. 506507.